

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
TERMIZ IQTISODIYOT VA SERVIS UNIVERSITETI



Termiz iqtisodiyot va servis universiteti rektori
A.U. Sattarov
30-avgust 2024-yil
Ro'yxatga olingani: № BP 60230100-1.04
2024-yil 30-avgust

O'ZBEK FOLKLORI

O'QUV DASTURI

Bilim sohasi: 200000 – San'at va gumanitar fanlar
Ta'lim sohasi: 230000 – Tillar
Ta'lim yo'nalishi: 60230100 – Filologiya va tillarni o'qitish: o'zbek tili

Termiz-2024

Fan/mavzu kodi	O'quv yili	Semestr	Kreditlar
O'F106	2024-2025	I	6
Fan/mavzu turi	Ta'lim tili		Haftadagi dars soatlari
Majburiy (5 ECTS)	O'zbek		6
Fanning nomi	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklama (soat)
O'zbek folklori	90	90	180
1.			
2. 1. Fanning mazmuni	<p>Fanni o'qitishdan maqsad – talabalarga xalq og'zaki ijodi namunalari bilan sinkretik san'at sifatida xalq ma'naviy hayotida muhim o'rin tutishini, unda o'zbek xalqining asrlar davomidagi ijtimoiy, maishiy, madaniy hayoti o'zining badiiy ifodasini topganligi, o'zbek xalq og'zaki ijodi namunalari va ularning janrlar tarkibi, o'ziga xos xususiyatlari bo'yicha ilmiy-nazariy ma'lumot berishdan iborat.</p> <p>Fanning vazifasi– talabalarni o'zbek xalq og'zaki ijodi namunalari bilan tanishtirish, ta'lim oluvchilarda qayd etilgan masalalar bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish vazifalarini bajaradi.</p>		
	<p>II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)</p> <p>II.1. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:</p> <p>KIRISH</p> <p>1-mavzu. Kirish. Xalq og'zaki ijodi so'z san'ati sifatida. Folklor atamasi, yetakchi xususiyatlari, tur va janrlari</p> <p>2-mavzu. Mif va uning badiiy talqinlari. Afsona, rivoyat, naqlarning janr xususiyati</p> <p>3-mavzu. O'zbek marosim folklorining janrlar tarkibi va badiiyati</p> <p>4-mavzu. Xalq dostonlari va ularning o'ziga xos xususiyatlari</p> <p>5-mavzu. Qahramonlik dostonlari</p> <p>6-mavzu. Romanik dostonlarning g'oyaviy-badiiy xususiyatlari</p> <p>7-mavzu. Kitobiy dostonlar</p> <p>8-mavzu. Xalq ertaklari</p> <p>9-mavzu. Qo'shiq va lirika atamaları haqida. Mehnat qo'shiqlari va termalar</p> <p>10-mavzu. Bolalar folklori va ularning badiiy talqini</p> <p>11-mavzu. Lirik qo'shiqlar</p> <p>12-mavzu. Xalq maqollari va topishmoqlar</p> <p>13-mavzu. Latifa va lof janrlarining o'ziga xos xususiyatlari</p>		

14-mavzu. Askiya
15-mavzu. Tomosha san'ati
II. Amaliy mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsifalar
1-mavzu Xalq og'zaki ijodining o'ziga xos xususiyatlari
2-mavzu Versiya va variantlarining farqli jihatlari
3-mavzu Mif, afsona janrlarining o'ziga xos xususiyatlari
4-mavzu Rivoyatlar va ularning adabiyotdagi o'rni
5-mavzu O'zbek xalq dostonlarida pir va eran obrazlari.
6-mavzu Xalq dostonlari va dostonchilik maktablari
7-mavzu "Alpomish" dostoni
8-mavzu "Go'ro'g'li" turkumi dostonlari
9-mavzu Marosim qo'shiqlari: ijro o'rni va badiiyati.
10-mavzu Oilaviy marosimlar tadriji
11-mavzu Mehnat qo'shiqlari namunalari qiyosiy tahlili
12-mavzu Bolalar qo'shiqlari va ertaklari tahlili
13-mavzu Latifa, lof va askiya janrlari namunalari tahlili
14-mavzu Maishiy ertaklar va ularning tahlili
15-mavzu Lirik qo'shiqlardagi ramzlar
III. Seminar mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsifalar
1-mavzu. Xalq og'zaki ijodining o'ziga xos belgilari
2-mavzu. Mavsumiy marosim folklori namunalari va ularning badiiyati
3-mavzu. Oilaviy marosim folklori namunalari va ularning badiiyati
4-mavzu. Qahramonlik dostonlari xususiyatlari,
5-mavzu. Ishqiy-romanik dostonlar tabiati
6-mavzu. Tarixiy dostonlar
7-mavzu. Xalq kitoblarining janr xususiyatlari
8-mavzu. Xalq ertaklari turlari va ulardagi obrazlilik
9-mavzu. Hayvonlar haqidagi ertaklar va uning tahlili
10-mavzu. O'zbek xalq topishmoqva maqollar janr xususiyatlari va genezisi
11-mavzu. Latifa va lof janrlari
12-mavzu. Mehnat qo'shiqlarini yaratilishi, tarixi va badiiyati
13-mavzu. Lirik qo'shiqlar
14-mavzu. Bolalar folklori: janrlari taraqqiyoti va xususiyatlari
15-mavzu. Alla janri xususiyatlari va badiiyati

Amaliy va seminar mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

Fanni o'qitishda innovatsion yondashuvlar (ma'lumot-axborot, taqdimot, multimedia texnologiyalari) va ta'limning zamonaviy texnologiyalari (rivojlaniruvchi ta'lim texnologiyalari, fanni to'liq o'rganishga yo'naltirilgan texnologiyalar), interfaol metod ("T-chizma", "Baliq skeleti", "Tushunchalar tahlili", "Aqliy hujum", "Klaster" "Zigzag", "Birgalikda o'qiyamiz", "FSMU" va boshqalar) qo'llaniladi. Bundan tashqari darslik, o'quv qo'llanmalari, ta'limiy o'yinlar, tarqatma materiallardan foydalanish nazarda tutilgan.

IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar

Auditoriyadan tashqari vaqtda bajariladigan mustaqil ishlar quyidagi turlarda amalga oshirilishi tavsiya etiladi:

Talabaga mustaqil ishini tayyorlashda muayyan mavzuning xususiyatlarini hisobga olgan holda quyidagi shakllardan foydalanish tavsiya etiladi:

- mavzu bo'yicha rasmiy axborot tayyorlash;
- referat tayyorlash;
- elektron taqdimot tayyorlash;
- mavzu bo'yicha loyiha yaratish;
- mavzu bo'yicha rasmiy matn tuzish;
- terminlar lug'atini tuzish;
- mavzu bo'yicha bahs-munozaraga tayyorlanish;
- mavzuga oid klaster tuzish;
- hujjat matnida qo'llaniladigan so'zlardan krossvord tuzish;
- davlat tilida ish yuritish hujjatlaridan namunalar tayyorlash;
- darslik va o'quv qo'llanmalarining boblari va mavzularini o'rganish.

Ta'lim yo'nalishi(mutaxassislik)ning xususiyatidan kelib chiqqan holda mustaqil ishlarning boshqa turlaridan foydalanish mumkin.

Tavsiya etilayotgan mustaqil ta'limning mavzulari:

- 1.Mif va badiiy adabiyot munosabatlari.
- 2.Mustaqillik yillarida xalq og'zaki ijodining davlat maqomiga erishishi, mifologik tasavvur va bilimlarni o'rganish imkoniyatining tug'ilganligi.
- 3.Bolalar folklorida mifologik elementlar.
- 4.Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'otit turk" asarida mifologik dunyoqarash unsurlari.
- 5.Xodi Zarif o'zbek folklorshunosligining asoschisi

6.To'ra Mirzaev – folklorshunos.

7.Bugungi o'zbek folklorshunosligining rivoji.

8.Xalq dostonlarini o'rganish tajribalari va yangi nazariy qarashlar

9.O'zbek mifologiyasi xalq qadiyatlarining tarkibiy qismi sifatida

10.“Dada Qo'rqut kitobi” va “Alpomish” dostonida mifologik tizimning qiyosiy tahlili.

11.Xalq qo'shiqlarida mifik timsollar.

12.Ertaklarda mifik unsurlar.

13.Alisher Navoiy ijodi va mif.

14.O'zbek folklorshunosligining tadrijiy taraqqiyotida mifologik tasavvurlar tadqiqi.

15.Xalq dostonlari va mifologiya

16.Mustaqillik davri folklor asarlari nashrlari tajribasi.

17.“Alpomish” dostonidagi avlod shajarasi dostonida ikki bora to'liq qaytariladi.

18.Birinchisi doston boshlanmasida baxshi tomonidan aytilsa, ikkinchisi Alpomish 19.Qalmoqdagi chohdan chiqib, yurtiga qaytayotganda ilk bor uchragan karvonlaragi bu shajarani to'liq aytadi.

20.“Alpomish” dostonida Dobonbiyning 14 botmon brinchdan bo'lgan yoyi uzoq vaqt harakatsiz yotdi. Alpomish etti yoshida bu yoyini otib, alp ataldi. Oradan vaqt o'tib yoy yana chang bosib qoldi. Yodgor uni bazo'r sudrab tortdi. Bu yoyning o'g'uz qissalaridagi Uch o'q va Bo'z o'q urug'lari bilan bog'liqligini va ma'no qirralarini aniqlashga harakat qiling.

21.“Alpomish”da Qalmoq alplari mubolag'aviy tasvirlanadi, ammo Alpomishning bu xil tasviri yo'q. Bu usulning qo'llanishidan baxshi-shoirilar nima maqsad qilishgan?

22.Qultoy aytadi: “Alpomishning chap elkasida mening qo'limning izi bor”. Qultoy kim? Uning dostonidagi o'rmi qaerda? Bodom bikach Barchin bilan o'lan aytishadi. Nega Bodom bikach bilan Barchin? Bu aytishuvning poetik yuki qanday deb o'ylaysiz?

23.O'zbek folklorshunosligining tadrijiy taraqqiyotida mifologik tasavvurlar tadqiqi.

24.Xalq dostonlari va mifologiya

25. Mustaqillik davri folklor asarlari nashrlari tajribasi.

26. "Alpomish" dostonidagi avlod shajarasi dostonida ikki bora to'liq qaytariladi. Birinchisi doston boshlanmasida baxshi tomonidan aytilsa, ikkinchisi Alpomish Qalmoqdagi chohdan chiqib, yurtiga qaytayotganda ilk bor uchragan karvonlaragi bu shajarani to'liq aytadi.

27. Bundan maqsad nima? Bu sanoq qanday mazmunga ega? Epos mazmuni kesimida talqin eting.

28. "Alpomish" da kuylangan:
 «*Davlat qo'nsa bir chivinning boshiga*
Semurg' qushlar salom berar qoshida» shohbaytning doston voqeligiga qanday aloqasi bor?

29. "Alpomish" dostonida Dobonbiyning 14 botmon brinchdan bo'lgan yoyi uzoq vaqt harakatsiz yotdi. Alpomish etti yoshida bu yoyni otib, alp ataldi. Oradan vaqt o'tib yoy yana chang bosib qoldi. Yodgor uni bazo'r sudrab tortdi. Bu yoyning o'g'uz qissalaridagi Uch o'q va Bo'z o'q urug'lari bilan bog'liqligini va ma'no qirralarini aniqlashga harakat qiling.

30. "Alpomish" da Qalmoq alp'lari mubolag'aviy tasvirlanadi, ammo Alpomishning bu xil tasviri yo'q. Bu usulning qo'llanishidan baxshi-shoirilar nima maqsad qilishgan?

31. Qultoy aytadi: "*Alpomishning chap elkasida mening qo'limning izi bor*". Qultoy kim? Uning dostonidagi o'rni qanda? Bodom bikach Barchin bilan o'ylan aytishadi. Nega Bodom bikach bilan Barchin? Bu aytishuvning poetik yuki qanday deb o'ylaysiz?

32. Poygada qatnashgan otlar hisobini chiqaring, chavandozlarning etmik tarkibini aniqlang va poygani shu xil tahlil qiling. Bu hosilani eposning umumiy g'oyasiga bog'lab talqin eting.

33. Qalmoq alp'lari Barchinga sovchi bo'lib kelishadi. Barchinning yoshini hisob-kitob qilib, o'tovini alohida, uning o'zi javob beradi degan qarorini aytishadi. Bu talqinning marosimiy asosi va poetik ma'no qamrovini aniqlang.

34. "Alpomish" dostonida Yortiboy obrazining poetik yuki qanday? Uning: *Maslahat bermaymiz Boyxari boya,*
Osilmaylik Boybo rining doriga.
Va Kashalda aytgan:
Bolalarni tog'a-jivan qilamiz
Bu ellarda erkin bo'lib yuramiz.
 Ushbu javoblarning talqini qanday?

35. Cho'lponning ushbu: "**BOYCHECHAK**" "Boychechakning bolasi"

Oehdi yuzini;

Suvga chiqqan xolasi

Ko'rdi qizini!

«Boychechakning bolasi»

Yetimcha bir qiz...

Uning o'gay onasi

Juda yomon tez!

«Boychechakning bolasi»

Yulib olindi,

Yurtning ko'zi olasi

Juda sevindi!

«Boychechakning bolasi»

Har uyda kuldi,

Go'daklarning xaltasi

Non bilan to'ldi!...she'ri, bu she'r ma'nosi va unda tasvirlangan voqelikning

«*Yong'ir yog'aloq,*
Echki chaqaloq,
Boyning qizining.
Qorni dumaloq» qo'shig'iga qanday aloqasi bor? Har ikki asar: Cho'lpon she'ri va bolalar qo'shig'ining Navro'z bayrami bilan kesishadigan nuqtalarini toping va talqin bering?

36. Daryo obrazi kelgan xalq qo'shiqlari:
Sizni unda, bizni bunda yaratdi,
O'rtamizda oqar daryo yaratdi,
Oqar daryo ekan oqdi-yu ketdi,
Bevafo yor ekan, tashladi, ketdi.
 to'rtligi va "Go'ro'g'liming tug'ilishi" dostonidagi Go'ro'g'li va Rayhon podsho yurtlarini ajratib turuvchi daryoga qanday bog'liqlik o'rinlari bor? Bu bog'liq nuqtaning semantik ko'lamini aniqlang, talqin bering.

37. "*Daryoning ul yuzida uylaringiz*
Oqarishib ko'rinadi bo'ylaringiz". Turkum qo'shiqlari semantikasini ushbu kesimda olib, tadqiq eting.

38. "Go'ro'g'lining tug'ilishi" dostoni avvalida Go'ro'g'lining otasi Ravshanni Shohdorxon askarlari yov bo'lib kelganda Hamza asir qilib, yashirincha olib ketadi. Savol: nega Taka-Yovmit ahli bu holatga bee'tibor qoldi? Sabab nima? Bu epizodning epos g'oyasiga aloqasi qanday? Ravshan sinchi va To'laboy sinchi munosabati va raqobatining semantik ko'lamini epos voqeligi ma'no qatlamlari kesimida talqin eting. 39. Go'ro'g'lining tug'ilish vaqti, uning qabrda kechgan davri, biya emib ulg'ayishi va Rustam qo'lga kelib, o'z yurtiga qaytgungacha bo'lgan vaqt talqinini epik qahramon hamda etnos kesimida tahlil qiling. 40. Go'ro'g'li turkumida ettita epik ot tarjimai holi, epik talqinlari aks etgan. Bu otlar qanday otlar va ularni epik ot obrazida talqin eting. Alp – eposning qahramoni. Etnosda uning quvvatini namoyon etuvchi sohibqironlar va ulug' quvvatli sarkarda-yu, podsholarning umumlashma badiiy obrazi bu alp hisoblanadi. "Alpomish" va "Go'ro'g'li" dostonida alplik tizimi asar yadrosini tutib turuvchi mohiyatlardan biridir. Alplik tizimi tasavvurlarini ushbu dostonlar misolida qayta tekshirib chiqing. 41. O'zbek xalq qo'shiqlari, xususan, lirik qo'shiqlarda poetik ramzlar asosiy fikr, tuyg'u, kechinma ifodachi sifatida muhim o'rin tutadi. Qo'shiqlardagi etakchi ramziy obrazlar: olma, ro'mol, tom, g'oz, o'rdak, shaftoli, tamaki, oq, qizil, sariq va hakazolar semantikasini aniqla 42. "Susambil" etagida nega hayvonlar Susambilga borishadi? Susambilning Chambilga aloqasi bormi? Chambil qanday shahar, bu tasavvurlarning asosi va badiiy talqinlari haqida o'z xulosalaringizni ayting. 43. Ertaklardagi uch aka-uka yo'l oluvchi manzillar: 1. Borsa kelar. Borsa noma'lum; 3. Borsa kelmas. Bular qanday talqinga ega? Nega kenja botir borsa kelmasga boradi. Bu ertaklar nimadan xabar beradi? 44. "Ur to'qmoq" dagi sehrli buyumlar: Ochil dasturxon; Qaynar xumcha; Urto'qmoq va yana yalmog'izning uch atributi: taroq; qayroq; oyna va bu jismlarning semantikasi nima? Nega ular bu xususiyatlarni oldi? Ertak kesimidagi ma'nosi va hayotdagi mohiyati nima? 45. "Dunyoda yo'q hunar", "Uch ko'r va bir yigit", "Qo'ng'iz bekach" ertaklari
--

ifodalayotgan ramziy-imsoliy vositalari bizga nimalardan xabar beradi? "Ravshan" dostonidagi: «Yor aylanay qalpoq tikkan qo'lingdan» deb boshlanuvchi murojaat va Ravshanning bozordagi xaloyiqqa "Uzoqdan kelayotibman" deb boshlanuvchi qo'shiqlarning "Go'ro'g'li" dostonlaridagi boshqa barqaror shakl va formulalar bilan munosabatini tahlil eting. 46. Xalq ertaklari va dostonlaridagi tushlarning badiiy vazifasi va semantikasini "Alpomish" va "Go'ro'g'li" dostonlari hamda bir qator ertaklar misolida qiyosan tahlil eting. 47. Xalq dostonlari va ertaklarida sinov kompleksi – tabu, shart, shartlilik bilan bog'liq motivlar mavjud. Sinov turlarining asar syujetidagi o'rni va vazifalarining umumiy va xususiy jihatlarini ko'rsating. 48. "O'tan", "Yor-yor", "Kelinsalom" va «Ashula» - lirik qo'shiq janrlarining o'ziga xos xususiyatlari va uyg'un jihatlari 49. Afsona, naql va latifalarning voqelikni aks ettirishdagi farqi va assotsiativ ma'nolarini yoritib bering. 50. Maqol, topishmoq va chaldirmoq janrlarini qiyosan tahlil eting. Maqollarning o'z va ko'china ma'nolariga diqqat qaratng. Topishmoq va chaldirmoqlarning uyg'un va farqli xossalarga to'xtalng.	3. V. Ta'lim natijalari / kasbiy kompetensiyalar Talaba: – folklor janrlari, xalq og'zaki ijodi genezisi va tarixiy taraqqiyoti, janrlar va ularning xususiyatlarini aniqlash, janrlararo munosabat mezonlarini belgilash, adabiyot va folklor munosabati haqida <i>tasavvurga ega bo'lishi</i> ; – xalq og'zaki ijodining sinkretik san'at ekanligini, boshqa san'at turlaridan farqli jihatlarini ko'rsatib berish, o'zbek folklorining tarixiy taraqqiyot bosqichlarini, O'zbekiston mustaqillikka erishgandan so'ng xalq og'zaki ijodi davlat maqomiga erishganligi, shuningdek, folklor namularini tahlil qilish, ularni xalq orasidan yig'ish va tasniflash <i>matalakasini egallashi</i> ; – talabalar o'zbek folklorining jahon folklori merosida munosib o'rini anglashi va ularni baholash <i>ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak</i> .
	4. VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari: • kichik guruhlarda ishlash; • individual loyihalar; • interaktiv tarzda ishlash;

<ul style="list-style-type: none"> • taqdimot nutqi tayyorlash; • interfaol va innovatsion metodlar, ilg'or texnologiyalar, adabiy til me'yorlari asosida og'zaki va yozma nutqni rivojlantiruvchi qiziqarli o'yinlar, nonstandart topshiriqlar; • auditoriya va auditoriyadan tashqari ishlar (noan'anaviy dars shakllari: sayohat-dars, hayotiy lavhali dars); • audio-vizual materiallar bilan ishlash; • hujjat matnini yozishga va mustaqil tuzishga oid zamonaviy texnologiyalari; • talabalarning davlat tilida ish yuritish ko'nikmalarini amalda qo'llashni nazorat qilish va baholashning zamonaviy usullari. 	<p>VII. Kreditlarni olish uchun talablar:</p> <p>5. fanga oid o'rganilgan nazariy bilimlarni amalda qo'llay bilish; o'rganilgan rasmiy matn yaratish mavzulari doirasida aniq, ixcham fikrlash; rasmiy uslubning boshqa uslublardan farqli tomonlariga izoh berish, davlat tilida ish yuritish hujjatlari matnini mustaqil ravishda og'zaki va yozma shaklda tuzish va yozish, rasmiy matn ustida ishlay olish; hujjat turlari matniga xos qoliplashgan birliklarni o'rinli qo'llay bilish; davlat tilida ish yuritish hujjatlarining o'ziga xos jihatlarini aniq bayon qilish, davlat tilida ish yuritish mohiyatini tushunish, o'rganilgan hujjatlarni to'g'ri yoza bilish; joriy, oraliq nazorat shakllari bo'yicha, mustaqil ta'lim bo'yicha berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat ishini topshirish.</p>	<p>6. Asosiy adabiyotlar</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Jo'rayev M. Folklorshunoslik asoslari. – Toshkent: “Fan”, 2009. 2. Mirzayev T. va boshqalar. O'zbek folklori /Darslik. – Toshkent: “Tafakkur bo'stoni”, 2020. 3. Safarov O. O'zbek xalq og'zaki ijodi. – Toshkent: “Musiqqa” nashriyoti, 2010. 4. Madayev O. O'zbek xalq og'zaki ijodi. – Toshkent: “Mumtoz so'z”, 2013 5. Mirzayev T. va boshqalar. O'zbek xalq og'zaki ijodi xrestomatiyasi. – Toshkent: “Aloqachi”, 2008. <p>Qo'shimcha adabiyotlar</p> <ol style="list-style-type: none"> 6. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Харакатлар стратегияси” тўғрисидаги Фармони (Халқ сўзи 2017 йил, 8 феврал). 7. Ш. Мирзиёев. Буюк келажакимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга курашимиз. – Тошкент: Ўзбекистон, 2017.
---	--	--

<ol style="list-style-type: none"> 8. Ш.Мирзиёев. Қонун устуворлиги ва инсон манфаатларини таъминлаш – юрт тараққиёти ва халқ фаровонлигининг гарови. – Toshkent: Ўзбекистон, 2017. 9. Ўзбекистон Республикаси Президентининг қарори “Олий таълим тизimini янада ривожлантириш чора-тадбирлари” тўғрисида (Халқ сўзи 2017 йил, 21 апрель). 10. Madayev O. O'zbek xalq og'zaki poetik ijodi. (Nazariy kurs matni). T.:1999. 11. Мирзаев Т. Эпос и сказитель. – Ташкент: Фан, – 410 с. 12. Turdimov Sh. Etnos va epos. – Toshkent, O'zbekiston, 2012. 13. Ergashev A. Qashqadaryo-Surxondaryo dostonchiligi. – Toshkent: “Fan”, 2008. 15. Eshonqulov J. Epik tafakkur tadriji. – Toshkent, “Fan”, 2006. 16. O'zbek folklorshunosligi masalalari. 3-kitob. – Toshkent: “Fan”, 2010. 17. O'zbek xalq og'zaki ijodi yodgorliklari. 100 jildlik. – Toshkent: G'afur G'ulom, 2015, 2016. <p style="text-align: center;">Internet saytlari</p> <ol style="list-style-type: none"> 18. lectures.ndpi.uz>lektions 19. news.uzreport.uz>news_9 ul36022 20. www.folklore.ru 21. www.folkscntr.ru 22. https://m.vk.com>club1962650 23. folklore.tomsk.ru www.ruthenia.ru>folklore 	<p>Termiz iqtisodiyot va servis universiteti tomonidan ishlab chiqilgan va universiteti Kengashining 2024yil 30avgustdagi 1-son qarori bilan tasdiqlangan.</p>	<p>Fan/modul uchun mas'ullar:</p> <p>8. A.Esanov – Termiz iqtisodiyot va servis universiteti O'zbek tili va adabiyoti kafedrasi katta o'qituvchisi fil.f.f.d.(PhD)</p> <p>A.Qaraqulov- Termiz iqtisodiyot va servis universiteti O'zbek tili va adabiyoti kafedrasi o'qituvchisi.</p> <p>Taqrizchilar:</p> <p>D.O'rayeva – Buxoro davlatuniversiteti o'zbek adabiyotshunosligi kafedrasi katta o'qituvchisi, filologiya fanlari nomzodi, dotsent</p> <p>N.Yuldoshev –Termiz davlat universiteti o'zbek adabiyotshunosligi kafedrasi katta o'qituvchisi, filologiya fanlari doktori, dotsent</p>
---	--	---